**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**Ro`yxatga olindi**
**№ MD-70230101-1,05**
**"30" 09 2024 yil**

**"TASDIQLAYMAN"**
**O'quv ishlari bo'yicha prorektor**
**_________ R.N. To´rayev**
**«__» 08 ________2024-yil**

# ILMIY VA KASBIY FAOLIYATGA YO'NALTIRILGAN CHYeT TILI FANNING O`QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 200000 - San`at va gumanitar fanlar |
| Ta'lim sohasi: | 230000 – Tillar |
| Ta'lim yo'nalishi: | 70230101 - Lingvistika: nemis tili |

Termiz – 2024

| Fan/modul kodi *IFYCHT11-208* | O'quv yili 2024-2025 | Semestr 1-2 | YeCTS - Kreditlar 8 | |
|---|---|---|---|---|
| **Fan/modul turi** Majburiy | **Ta'lim tili** nemis | | **Haftadagi dars soatlari** 4/4 | |
| 1. **Fanning nomi** | | **Auditoriya mashg'ulotlari (soat)** | **Mustaqil ta'lim (soat)** | **Jami yuklama (soat)** |
| Ilmiy va kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan chet tili | | 120 | 120 | 240 |

2.

**I. Fanning mazmuni**

Fanning maqsadi – magistrantlarning chet tili bo'yicha bilimlarini ilmiy va kasbiy faoliyatga yo'naltirgan holda S1+ darajaga (CYeFR) ko'tarish, chet tilida ilmiy tadqiqot olib borish va kasbiy malakalarini rivojlantirish.

Fanning asosiy vazifasi – magistratura bosqichi talabalarining ilmiy va kelgusidagi kasbiga oid yo'nalishlarda chet tilida ma'ruzalar qilish va ilmiy maqolalar yozish kompetensiyalarini takomillashtirish, til birliklarining qo'llanilish xususiyatlari va me'yorlari bo'yicha bilimlarini chuqurlashtirishdan iborat.

**II. Asosiy qism (amaliy mashg'ulotlar)**

**II.I. Fan tarkibiga chet tilini egallashning quyidagi kompetensiyalari kiradi:**

**Tinglab tushunish:**

- keng qamrovli mavhum va murakkab mavzulardagi matnlar;
- keng ko'lamdagi idiomatik iboralar va og'zaki nutq namunalariga boy audio tasmalar, axborot va ommaviy e'lonlar (masalan, temir yo'l vokzali, sport maydonchasidagi e'lonlar);
- guruh muhokamasidagi asosiy va boshqa ishtirokchilar o'rtasidagi murakkab muloqot;
- teledastur va filmlar;
- o'rganilayotgan til sohibi bo'lgan va bo'lmagan so'zlashuvchilarning turli rasmiy va norasmiy doiralardagi yoki ta'lim muassasalaridagi autentik og'zaki nutq namunalari;
- sohaga oid ma'ruzalar, bahs-munozaralar;
- dars jarayonidagi o'qituvchilik nutqi tahlili.

**Gapirish:**

*Dialogik nutq:*

- shaxslararo muloqot va suhbatlar;
- ommaviy munozaralar va rasmiy muhokama;
- o'z mutaxassislik sohasiga oid bo'lmagan mavhum va murakkab mavzulardagi ma'ruzalar va muloqotlar;



- ishga qabul qiluvchi yoki ishga kiruvchi sifatida intervyuda qatnashish;
- auditoriyada qo'llaniladigan iboralar;
- dars jarayonida muammolar bilan shug'ullanish;

*Monologik nutq:*

- ilmiy posterlarni taqdimotini o'tkazish
- ko'rsatmalar;
- taqdimotlar;
- konkret yoki mavhum mavzular bo'yicha o'z mulohazasini bildirish va uni asoslay olish;
- o'z fikrini asoslangan tarzda ifoda etish;
- fikrlar, muhokama yoki sohaga oid maqola yuzasidan umumlashgan xulosa chiqarish.

**O'qish:**

- ijtimoiy, mutaxassislik yoki ta'lim sohalarida uchrash ehtimoli bo'lgan birmuncha uzun va murakkab matnlar;
- ilmiy maqolalar va adabiyotlar;
- badiiy va ilmiy-ommabop kitoblar, shuningdek adabiy jurnallar;
- gazeta va jurnallar;
- yo'riqnomalar (qo'llanmalar, taomnoma kitoblari va hokazo);
- reklama materiallari;
- turli ma'lumotnoma shakllari, o'qituvchi kundaligi, so'rovnomalar;
- rasmiy xatlar, elektron xatlar va hokazo (memorandumlar, ma'ruzalar, tanqidiy bayonotlar/maqolalar, ilmiy ishlar).

**Yozuv:**

- ma'lumotnoma shakllari va so'rovnomalar;
- ish va mutaxassislikka doir rasmiy xatlar;
- mavzu tanlash bayonoti;
- ilmiy maqola;
- ilmiy maqola va havolalarn rasmiylashtirish;
- ilmiy va o'quv adabiyotlariga taqriz;
- ilmiy manbalarni sintezlash;
- tanqid;
- annotasiya;
- rezyume;
- tezis;
- munozarali insholar;
- ilmiy tahlillar;
- ilmiy ma'ruzalar;
- grant va stipendiyalar uchun taklif va mulohazalar;
- chet el grantlari uchun loyiha tayyorlash;
- rasmiy hujjatlar (shartnomalar, bitimlar).

***Lisoniy material:***

- nutqning leksik jihati;
- yuqorida qayd etilgan mavzularga oid leksika;
- ta'lim va mutaxassislikka oid leksika;

- so'z yasash modellari va qisqartmalar;
- nuqtai nazar va qarashlarni ifodalovchi so'z va iboralar.

**Nutqning grammatik jihati:**
- ixtisoslashgan matnlardagi grammatik strukturalar (masalan, ilmiy inshoda majhul nisbatning qo'llanilishi);
- pedagogik diskurs namunalari (masalan, grammatik, leksik yoki mazmun jihatdan bog'lanish);
- og'zaki va yozma matnda bog'lovchilarni qo'llash;
- artikl va belgilovchilar (determinantlar).

**Sosiolingvistik kompetensiya**
- tilning madaniyat jihatlari (masalan, idiomalar, maqollar va hokazo);
- xulq-atvor, o'zini tutish va etiket qoidalari;
- noverbal kommunikasiya vositalari;
- ijtimoiy va ilmiy doiraga xos tarzda tilni moslashtirish;
- madaniyatlararo muloqotni chuqurroq tushunib yetish;
- o'zga millat vakillariga nisbatan hurmat va tolerantlik;
- o'zga madaniyat va turli vaziyatlarga moslashish.

**Pragmatik kompetensiya**
- nutqni tushunish, talqin etish va so'zlashdagi tegishli strategiya va uslublar;
- turli diskurslar tarkibi va mazmunini bilish;
- muloqotdagi bo'shliqlarning oldini olish maqsadida til kamchiliklarini bartaraf etish;
- rasmiy va norasmiy doiralarda nutqni bo'lish, aniqlik kiritish, boshqacha talqin etish, jumlalarni tuzatish,to'ldirish va hokazo strategiyalar.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi nutqiy mavzular tavsiya etiladi:

**Hozirgi zamon dunyo muammolari:** giyohvandlik, terrorizm, jinoyat va jazo, ekologiya, etnik nizolar, bedavo kasalliklar.

**Ilmiy-texnik progress va uning bashariyatga bo'lgan ta'siri:** bioinjeneriya, nanotexnologiya, zamonaviy axborot vositalari, ilg'or texnologiyalar (kompyuter, internet, ayped), arof-muhitning ifloslanishi, ishsizlik.

**Madaniyatlararo ziddiyatlar:** diniy aqidaparastlik, ayollarning jamiyatdagi o'rni, jinslararo muammolar, avlodlar ziddiyati, teng huquqlilik.

**Zamonaviy qadriyatlar:** vatanparvarlik, madaniyat va ma'naviyat, diniy, milliy tolerantlik.

**Madaniyatlararo muloqot:** madaniyatlararo muloqotni chuqurroq tushunib yetish; o'zga millat vakillariga nisbatan hurmat va tolerantlik; o'zga madaniyat va turli vaziyatlarga moslashish, turli millat vakillaridan iborat bo'lgan darslarda o'qituvchini o'zini tutishi va muloqot qilishi;



madaniyatlararo muloqotda til birliklarning stilistik buyoqdorligiga e'tibor berish.

**Sog'liqni saqlash tizimi**: sog'lom turmush tarzi, sog'liqni saqlash organlari, tibbiyotning Sharq va G'arbda rivojlanishi, Ibn Sino - tibbiyot asoschisi, an'anaviy va noan'aviy tibbiyot turlari.

**O'zbekiston va tili o'rganilayotgan mamlakatlarning zamonaviy ta'lim tizimi:** o'quv muassasalarining turlari, ta'lim bosqichlari, ta'lim modellari, magistraturada ta'lim, chet elda ta'lim olish, ta'lim shakllari, infomasion texnologiyalarni ta'limda qo'llash.

**O'zbekistonda turizm masalalari:** turizm rivojlanishi, turizm sohasidagi o'zgarishlar, turizmning iqtisodiy va ijtimoiy jihati, g'arbiy va sharqiy mamlakatlardagi turizm servisining o'xshashliklari va farqlari.

**Yetakchilik va rahbarlik:** yetakchi va rahbar shaxsiy fazilatlari, rahbar turlari, rahbar hulq-atvori, rahbarlik turlari: avtoritar, demokratik, liberal, rahbarning hodimlarni motivasiyalashdagi roli

**Kasbiy o'sish:** dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchi nutqi, dars jarayonidagi muammolar bilan shug'ullanish, dars jarayonidagi xilma- xillik va ularning yechimi, tarjimon etikasi, muharrirlik faoliyati va etikasi, rahbar faoliyati va etikasi, o'qituvchi, rahbar, tarjimon va muharrir shaxsiy xislatlar va xulq-atvor; o'qituvchi-o'quvchi munosabatlari.

**Magistrantning ilmiy tadqiqot amaliyoti:** notiqlik san'ati, ilmiy maqola, ilmiy ma'ruza, prezentasiya, ilmiy konferensiya va simpozium, taqriz, mening dissertasiyam, mini-himoya, ilmiy loyihalar, muallif huquqi va patent.

## III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Ta'limning asosiy mazmuniga lisoniy material, madaniyatlararo bilimlar, nutq faoliyatining turlari kiradi. Dasturda nutq faoliyatining har bir turi modul sifatida belgilangan (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozuv). Modullarni egallash jarayoni integrallashgan holda olib boriladi.

Ilmiy va kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan chet tili kursi ta'limi ikkita alohida bosqichni o'z ichiga oladi: umumta'lim va kasbiy. Birinchi bosqich ijtimoiy, maishiy sohalarda og'zaki va yozma nutq chet tili kompetensiyasini takomillashtirishga qaratilgan. Ikkinchi bosqich – ilmiy uslubdagi og'zaki va yozma nutqni egallashga mo'ljallangan.

Ilmiy va kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan chet tili kursi bo'yicha nutqiy modullarni o'rgatish jarayonida magistrantlar ilmiy adabiyotlardan foydalanish va unga to'g'ri yondashish hamda fikrni og'zaki va yozma tarzda ilmiy uslubda bayon etishning asosiy usullarini, notiqlik san'ati, akademik yozuv, ilmiy tadqiqot olib borish ko'nikmalarini egallaydilar. Asosiy o'quv materiali sifatida autentik materiallar (publisistik, badiiy, ensiklopedik, shaxsiy va rasmiy mazmundagi xatlar), hamda audio- va videomatnlar xizmat qiladi. Asosiy diqqat-e'tibor matnning
kommunikativ, mantiqiy va mazmuniy jixatlarini tahlil etishga qaratilgan (matnning funksional-stilistik xususiyatlaridan kelib chiqgan

holda). Alohida e'tibor magistrantlarning ilmiy matnlar (maqolalar, tezislar, taqrizlar, sharhlar, referatlar, annotasiyalar, bibliografik xrestomatiyalar) bilan ishlashiga qaratilgan. Bu esa, o'z navbatida, ilmiy matnlarning struktura va mazmun jihatidan qo'rilishini bilish, hamda ularni tuzish va amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini bilishni talab etadi. Matnning axborot va mazmun jihatlarini tahlil etish jarayonida tahlil qilinayotgan matnlardan ko'rilayotgan masalaning mohiyatini, taklif etilayotgan usullarning mazmunini aniqlash, matndan kerakli axborotni chiqarib olish tajribalariga ega bo'ladilar. Turli janrdagi ilmiy matnlarni yaratish maqsadida magistr-lingvist akademik yozuv texnikalarini egallaydi. Mashg'ulotlar esa ilmiy uslubni (tanqidiy tahlil, sintez, baholash, olingan axborotni to'g'ri yetkaza bilish, axborotni ixchamlashtirish va kengaytirish va h.k.) o'rinli va faol qo'llay bilishni rivojlantirishga qaratilgan.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish yuzasidan kafedra tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar ilmiy va kasbiy yo'naltirilgan chet tili bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini turli matnlar, amaliy taqdimotlar, keyslar, turli xil insholar, guruh muhokamalar, bahs-munozaralar orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, mavzular bo'yicha taqdimotlar, bahs-munozaralar o'tkazish va boshqalar tavsiya etiladi.

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular va mustaqil ish shakllari:

- Berilgan mavzu bo'yicha qo'shimcha til materiali yig'ish, uni tahlil qila olish (Library research, Reading Log, Writing Assignment);
- Debatlarga tayyorgarlik ko'rish: Ilmiy-texnik progress va uni insoniyatga bo'lgan ta'siri: bioinjeneriya, nanotexnologiya, zamonaviy axborot texnologiyalari, atrof-muhitning ifloslanishi, ishsizlik. O'zbekiston va tili o'rganilayotgan mamlakatlarning zamonaviy ta'lim tizimi. Ta'lim muassasalarining turlari, ta'lim bosqichlari, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, magistraturada ta'lim, chet elda ta'lim olish;
- ilmiy posterlarni loyihalash va ularni himoya etishga tayyorgarlik ko'rish;
- portfolio tayyorlash;
- tanlangan mavzu bo'yicha ilmiy maqolalar yozish;
- ilmiy va o'quv adabiyotlarni tahlil qilish va taqriz yozish;
- taqdimot ustida ishlash: hozirgi zamon dunyo muammolari: Giyohvandlik, terrorizm, jinoyat va jazo, ekologiya, etnik nizolar, kasalliklar.Sog'liqni saqlash tizimi: Sog'lom turmush tarzi, sog'liqni saqlash, tibbiyotning Sharq va G'arbda rivojlanishi,



an'anaviy va noan'aviy tibbiyot turlari;

- guruh muhokamasiga (round table) tayyorlanish: vatanparvarlik, madaniyat va ma'naviyat, diniy, milliy tolerantlik, ekologiya muammolari, zamonaviy axborot texnologiyalari;
- ilmiy loyihalar ishlab chiqish;
- ilmiy seminarlarda ishtirok etish.

Talabalarning mustaqil ishi dasturning asosiy bo'limlari asosida rejalashtiriladi va quyidagi ish turlarini nazarda tutadi:

- tanlangan mavzu bo'yicha qo'shimcha til materiali yig'ish, uni tahlil qila olish (Library research, Reading Log, Writing Assignment);
- ilmiy ustaxonalarda qatnashish (Sciyentific workshops, Tutorial);
- so'z boyligini kengaytirish (Programme of vocabulary development);
- Portfolio tayyorlash;
- til vositalarining og'zaki va yozma nutqda qo'llanish imkoniyatlari bilan yanada kengroq tanishish;
- muayyan ko'rsatmalar bo'yicha berilgan topshiriqlarni yozma bajarish talab etiladi.

3. **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

• tilni madaniyat bilan o'zaro bog'liqlikda o'rganish, nutq modullari (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozuv), tili o'rganilayotgan xalqning axloqiy me'yorlarini; ilmiy va sohaga oid konferensiya, davra suhbatlari, munozara (jonli yoki vositali) larda muloqotni boshlash, olib borish va yakunlay bilish to'g'risida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi;***

•respublika, ta'lim muassasalriaro ilmiy anjuman va seminarlarda so'zga chiqish maqsadida notiqlik san'ati; ilmiy tadqiqot ishini yozish; ilmiy axborotni izlab topib, interpretasiya qila bilish; saralangan axborotni matnlarda umumlashtirish, kengaytirish va toraytirish; tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirish; lisoniy vositalarni tahlil qilish, qiyoslash, sintez va baholash maqsadida refleksiv ko'nikmalarni; chet tilini amaliyotda, ilmiy tadqiqot va loyihalashtirish faoliyatda qo'llash bilan bog'liq bo'lgan kasbiy ***ko'nikmalariga ega bo'lishi;***

• turli janrdagi ilmiy matnlarning strukturasini, mazmunini tahlil qilish; ilmiy soha va madaniyatlararo muloqotning barcha jabhalarida til sohiblariga adekvat ravishda turli janr va uslubdagi matnlarni tushunish, tahlil etish va tuzish; og'zaki va yozma matnlarni tushunish va tuzish strategiyalarini, hamda kasbiy faoliyatda muloqotning perseptiv, interaktiv va informasion taktikalarini egallash; bibliografik havolalarni, iqtiboslarni to'g'ri rasmiylashtira olishni ***malakalariga esha bo'lishi kerak;***

4. **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**

Fanni o'zlashtirish uchun o'qitishning zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan keng foydalaniladi: portfolio tayyorlash, guruhli

| | |
|---|---|
| | muzokaralar, jamoa loyihalari, juftliklar bo'lib topshiriqlarni bajarish, yakka holda ma'lum mavzu bo'yicha prezentasiyalar qilish, davra suhbatlari o'tkazish, diskussiya, klaster, bahs-munozara, refleksiv usullar (tahlil, qiyoslash, sintez, baholash). Axborot texnologiyalari, jumladan, multimedia vositalari yordamida mashg'ulotlar tashkil etiladi, Powyer Point, Prezi dasturlari yordamida prezentasiyalar yaratiladi. MOODLE platformasiga fan bo'yicha dasrlik va o'quv qo'llanmalar, media resurslar va testlar joylashtiriladi. |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Ilmiy faoliyat va kasbiy sohaning barcha turlarida chet til kommunikativ kompetensiyasiga (lingvistik, ijtimoiy-lingvistik, diskursiv, strategik, ijtimoiy-madaniy, o'quv-kognitiv) ega bo'lish; qasbga oid turli matnlarni tahrir qilish yoki yaratish; chet tilini o'qitishda milliy va xorijiy metodik meros yutuqlaridan, zamonaviy metodik yo'nalishlar va konsepsiyalardan kasbiy faoliyat doirasida foydalanish; kasbiy va o'quv- uslubiy maqsadda axborot manba'lari bilan ishlash; chet tili bo'yicha mavzularni bilish va egallagan axborotni amaliyotda qo'llashni; ilmiy va sohaga oid konferensiya, davra suhbatlari, munozara (jonli yoki vositali) larda muloqotni boshlash, olib borish va yakunlay bilish fikrlarni aniq ifodalagan holda muhokamalarda faol qatnasha olish; sohaga oid mavzular bo'yicha prezentasiya va ma'ruzalar qila olish; barcha turdagi ilmiy va tanqidiy insholarni yoza olish; sohaga oid va oid bo'lmagan adabiyotlar (maqolalar, kitoblar, malakaviy ish) tahlillarini yoza olish hamda fan bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy bo'yicha berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish va topshirish |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar[1]**<br>7. Ismoilov Yu., Ismatillayeva D. Deusch Professionell. Turon-Matbaa. MCHJ. Taschkent. 2014. Magistratura talabalari uchun nemis tili fanidan darslik.<br>8. Perlmann-Balme Michayela, Schwab Susanne, Matussek Magdalena. Sicher! C1. Huyeber Verlag. München. 2015<br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>11. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.<br>12. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. - 56 b.<br>13. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017. - 48 b |



| | |
|---|---|
| | 14. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.<br>15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. www.lex.uz.<br>16. Winkler Maresa, Dallapiazza Rosa-Maria, Yevans Sandra, Ziyel C1, Band 1, Lektion 1–6: Deusch als Fremdsprache. Verlag Huyeber. München. 2010.<br>Koithan Ute , Schmitz Hyelen , Siyeber Tanja , Sonntag Ralf. Aspekte neu C1: Mitt<br>**Axborot manbalari**<br>1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.<br>2. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.<br>3. www.mineconomy.uz (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi)<br>4. www.mehnat.uz (O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi)<br>5. www.mf.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi)<br>6. www.stat.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi)<br>7. www.ima.uz (O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi)<br>8. www.academy.uz (Fanlar akademiyasi)<br>9. http://www.learnenglish.org.uk/<br>10. www.yeducationuk.org<br>11. http://www.bbc.co.uk\worldservicye\learningenglish/<br>12. http://www.better-yenglish.com\yexerciselist.html<br>13. http://www.bbc.co.uk\worldservicye\learningenglish\business\index.shtml<br>14. http://www.yenglishclub.com\index.htm<br>15. http://www.bbc.co.uk\schools\teachers<br>16. http://yeducation.leyeds.ac.uk\yedu-mwye/yeltwww.htm<br>17. www.teachertrainingvideos.com<br>18. www.francophonniye.hacherre-livre.com<br>19. www.portail.lettres.net<br>20. www.ziyonet.uz<br>www.yedu.uzelstufe Deusch. Lehr- und Arbeisbuch. Verlag Huyeber. München |

| |
|---|
| O`quv dasturi Termiz davlat universitetining O`quv-metodik Kengashining 2024-yil 30- 08 dagi 1-sonli bayonnomasi bilan ma`qullangan. |
| **Fan/modul uchun mas'ul:**<br>U.Imomova – TerDu, Roman-german tillari kafedrasi mudiri, Phd |
| **Taqrizchilar:**<br>**Sh. A. Kenjaboyev** – Samarqand davlat universiteti medisinasi, chorvachilik va biotexnologiya universiteti Toshkent filiali, Tillar kafedrasi mudiri. |